

ANGLIYA VA O‘ZBEKISTON TA‘LIM SOHASIDA HAMKORLIK QILADI



O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yuldashev boshchiligidagi delegatsiya London shahridagi Goldsmiths universitetining Kreativlik va madaniy tadbirkorlik institutiga tashrif buyurishdi.

Tashrifdan maqsad O‘zDSMI va Goldsmiths Kreativlik va madaniy tadbirkorlik universiteti bilan o‘quv-uslubiy, ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlarida hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, anglyalik professor-o‘qituvchilarni O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutidagi o‘quv jarayolariga jalb etish va tajriba almashishdan iborat edi.



Buyuk Britaniya instituti rahbari Jerald Lidstounning ta'kidlashicha, tomonlar o'rtasidagi ilmiy hamkorlik har ikkala ta'lim muassasasi o'qituvchilari hamda talabalarining tajriba almashinuvi hamda ikki boy tarixga ega mamlakatlarning madaniy aloqalarini mustahkamlashda, ingliz tili kurslarini onlayn tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston vakillarining Anglyaning Goldsmits universitetiga tashrif besh kun davom etadi.

O'zDSMI Axborot xizmati